

TDTU talabalari Uzbekistan Airways'ga tashrif buyurishdi

2022 31 May

2022-yil 31-may kuni Uzbekistan Airways jamoasi talabalar uchun uchinchi “ochiq eshiklar” kunini o‘tkazdi. Bu safar Toshkent davlat transport universitetining talabalariga Uzbekistan Airways Technics xodimlari korxonada qanday havo kema turlariga texnik xizmat ko‘rsatilishi haqida so‘zlab berdi. Talabalar Airbus 320 bortida yo‘lovchi sifatida tashrif buyurib, u yerda aviamuhandislar ularga ushbu havo kema turining xususiyatlari haqida so‘zlab berishdi.

Hodimlar bilan ishlash mutaxassislari tez orada aviatsiya oilasi a‘zosi bo‘lishni xohlovchi talabalar uchun haq to‘lanadigan amaliyot boshlanishi haqidagi e‘lonni aytib o‘tdilar.